

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ЧИРЧИҚ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

СПОРТ ВА ЧАҚИРИҚҚАЧА ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ



“TASDIQLAYMAN”

“Jismoniy madaniyat” kafedrasi mudiri
_____ F.A.Nurmatov

«____» _____ 2019 y

“ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ” КАФЕДРАСИ

“ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ НАЗАРИЯСИ ВА МЕТОДИКАСИ”

фанидан маъруза матни

МАЪРУЗА № 6

МАВЗУ: Qadimgi Rusda jismoniy tarbiya

Тузувчи: ўқитувчи. Хабибуллаев Самандар Хабибуллаевич

ЧИРЧИҚ-2019

MA'RUZA №6

Mavzu: Qadimgi Rusda jismoniy tarbiya

Reja:

1. Chor Rossiyasining istilochilikda jismoniy tarbiya va sport. madaniyatning kirib kelishi.
2. XIX asrning ikkinchi yarmida Ruslarning Turkistonga kelib o'rnashib olganida jismoniy tarbiya va sportni rivojlanish bosqichlari.
3. 1913 yilda tashkil etilgan "Toshkent sport havaskorlari jamiyati" haqida.

Adabiyotlar:

1. Abdumalikov R., Eshnazarov J.E., Ajdodlar jismoniy madaniyati tarixini o'rganish masalalari, o'quv qo'l., T., O'zJTI, 1993 yil.
2. Stolbov V.V., Istoriya fizicheskoy kulturi i sporta., M. 2001 god.
3. Xoldorv T., Nurmatov F.A. Yunusova D.S. jismoniy tarbiya tarixi va sport harakati"-T 2013 y
4. Xo'jaev P. Meliev M., Yunusova D.S. Jismoniy madaniyat tarixi va sportni boshqarish-T., 2016 y.
5. Botirov X.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. T. "O'qituvchi" 1993 y.

Chor Rossiyasining istilochilikda jismoniy tarbiya va sport. madaniyatning kirib kelishi

Eng qadimgi davlardan buyon Turkistonni o'ziga qaratish maqsadida inglizlar va boshqa Yevropa mamlakatlari ko'p urinib ko'rishgan. Shuningdek bunday istilochilik harakatlarda Rus davlati ko'proq harakat qilgan va XIX asrning ikkinchi yarmida o'z maqsadlariga erishgan.

Sobiq Ittifoq davrida Turkiston o'lkasidagi tarixiy voqeliklar ataylab buzib ko'rsatildi. Chunki Chor Rossiyaning bu o'lkaga turli bahonalar bilan kirib kelishining asosiy sababi bosqinchilik edi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridanoq (1991 yil 1 sentyabr)mamlakat tarixini qayta yoritish va barcha voqeliklarni ochiq-oydin ko'rsatish vazifa qilib qo'yildi.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov "Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, tarixni bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi"-degan so'zlari asosida "O'zbekistonning yangi tarixi"(3 ta kitob,2000 yil), nashrdan chiqarildi. Tarixiy jarayonlar bu kitoblarda "Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida" (1- kitob), "O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida" (2-kitob) va "Mustaqil O'zbekiston tarixi" (3-kitob) o'z nomi bilan asosli ravishda ifoda topdi.

Birinchi kitobda Chor Rossiyasining istilochilik,zo'rovonlik va aldamchilik, ayyorlik bilan Yevropa madaniyatini zo'rma-zo'raki tarqatish, milliy madaniyatini tub-tomiri bilan yo'q qilishga harakat qilinganligi ochib berildi. Bular negizida,ya'ni Turkiston xalqini "savodxon" qilish maqsadida turli xil o'quv maskanlarini ochadi va ularga rus tili va madaniyatini o'rgatishni majbur qiladi. Ular mazmunida albatta jismoniy mashqlar va yevropacha sport o'yinlari ham ancha ustuvorlikka ega.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyo respublikalariga ilk bor kirib kelish davrlari haqidagi ma'lumotlarni tubdan o'zgartirib, yangicha, ya'ni o'z nomi bilan atay boshladilar. Avvalgi manba'larda O'rta Osiyo Chor Rossiyasiga o'z ixtiyori bilan qo'shildi, degan iboralar o'rniga endi O'rta Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi, deb yuritila boshladi. Haqiqatdan ham Chor Rossiyasi hukumronlik qilgan davrlarda tayyorlangan rasmiy hisobot, ma'lumot va boshqa xujjatlarda Rossiya generallari tomonidan qilingan taziyoqlar, bosqinchilik urushlari aynan guvohlik beradi.

Bu sohadagi chuqur va keng ma'lumotlar G.A.Xidoyatovning "Mening jonajon tarixim" (1990 y) "O'zbekiston tarixi va madaniyati" (1992 y) o'quv qo'llanmalarida ham batafsil bayon qilingan.

"O'rta Osiyo yerlarini zabt etish dastlab Pyotr I dan boshlangan edi. U bir necha bor O'rta Osiyoga harbiy-ilmiy safarchilarni jo'natdi... 1839 yilda Orenburg harbiy gubernatori Perovskiy qo'mondonligidagi rus qo'shinlari Hiva tomon yo'lga chiqdi... Ularda 5325 askar, 22 to'p, 10 ming tuya bor edi. Ammo safardagi sovuq, og'ir sharoit tufayli ularning aksariyati qirilib ketdi".

1847 yilda Sirdaryo etagida Orol harbiy qal'asi barpo etiladi. Keyin Qozog'iston va O'rta Osiyo yerlaridagi shaharlarni rus askarlari bosib ola boshladi. 1864 yilda Turkiston, Chimkent, Avliyo ota, 1865 yilda Toshkent bosib olindi. 1867 yilda Yettisuv viloyati tashkil etildi. 1868 yilda Samarqand, 1876 yilda Farg'ona, 1884 yilda Marv Rossiya tasarrufiga o'tdi. 1876 yilda 17 fevralda podshoh Aleksandr II Qo'qon xonligini tugatib, o'rniga Turkiston Generali-gubernatorining Farg'ona viloyati tashkil etildi. General Skobelev uning harbiy gubernatori qilib tayinlandi.

Shu tariqa O'rta Osiyo Rossiyaning mustamlakasiga aylandi. Bu davrda Chor Rossiyasi generallari Perovskiy, Chernyaev, Skobelev, Kaufman, Kuropatkin va boshqalar O'rta Osiyoni bosib oldik, deb jar solishgan va tegishli xujjatlarda uni aks ettirishganligi aniqdir.

Shu sababdan mahalliy xalq Chor Rossiyasi zulmiga qo'zg'olonlar ko'tarishgan. Bunday qo'zg'olonlar 1872 yilda Chirchiqda, 1875-1876 yillarda Qo'qon, 1885 yilda Farg'onada, 1892 yilda Toshkentda, 1898 yilda Andijonda ham ko'tarilgan.

Chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmi va siyosati kuchaygan davr asosan 1900-1917 yil fevral burjua inqilobiga to'g'ri keladi. Chor Rossiyasi O'rta Osiyoga asosan hom ashyo manbai sifatida qaradi. O'lkaning og'ir sanoati rivojiga e'tibor bermadi. Sanoat mahsulotining 88 foizidan ko'prog'i (paxta, neft, ko'mir va boshqa) Rossiyaga olib ketilar edi.

1913 yilda O'rta Osiyo bo'yicha 212 nafar shifokor mavjud edi.

1905-1907 yillardagi Rus inqilobi O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Savodlilikni oshirish, milliy madaniyatni rivojlantirish borasida Jadidizm harakati vujudga keldi. Uning raxnamolaridan Mahmud Behbudiy, Munavvar Qori va boshqalar Turkiston hayotini o'zgartirish, uni chuqur demokratik mazmun asosida isloh qilish, yangilanish uchun kurashdilar. Ular tomonidan chiqarilgan "Xurshid", "Bujar", "Taraqqiy" gazetalari sahifalarida achchiq harakatlar aks ettiriladi. Chor Rossiyasi amaldorlari mahalliy

qo'zg'olonchilar va xalqni, milliy kadriyatlarni talab qilgan fuqarolarni, ziyolilarni jinoyatga tortilar. Bu davrlardagi voqealar mutafakkir akademik yozuvchi Oybekning "Qutlug' qon" romani, Xamzaning "Boy ila xizmatchi" dramasida aks ettirilgan.

Shuningdek, 1916 yildagi Jizzax qo'zg'olonida Masharif Xusainov, M. O'rinxo'jaev, Musabek To'rabekov, Abdulla Ochilov va boshqa ko'pgina xalq qahramonlari zulmga qarshi chiqdi.

Ilg'or rus olimlaridan P.P.Semenov-Tyanshanskiy (1827-1914 yillarda) O'rta Osiyo jo'g'rofiyasini o'rganishga asos soldi. Tabiatshunos va sayyoh A.P.Fedchenko (1844-1873 yillar), geolog va jo'g'rof I.V.Mushketov (1850-1902 yillar), V.F.Oshanin va boshqalar O'rta Osiyo tabiati va uning rang-barangligi to'g'risida muhim tadqiqotlar yaratdilar.

Ijtimoiy fanlarni o'rganishda mashhur rus olimlaridan V.V.Bartold, M.S. Andreev, Ye.Bertels, N.N.Ostroumov, V.L.Vyatkin, A.A.Semenov va boshqalarning xizmatlari kattadir.

Shu davrlarda Axmad Donish (1827-1897), Muqimiy (1861-1905 yillar), Zokirjon Furqat (1858-1909 yillar), Avaz O'tar (1894-1919 yillar) kabi mutafakkir shoirlar o'z zamonasining kirdikorlaridan kulishdi, she'riy asarlarida uni tanqid qilishdi. Ular xalqni adolat va tinchlik uchun kurashga, bilim olish va madaniyatni rivojlantirishga chaqirdilar. Shuningdek, bu davrlarda ilg'or ma'rifatparvar kishilar yetishib chiqdi. Ular Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929 yillar), Abdulla Avloniy, Behbudiy, Sadridin Ayni va boshqalar o'z ijodlarida, amaliy faoliyatlarida mavjud diniy maktablarni isloh qilish, yoshlarni bilim va ma'rifatli qilishga qarata jon fido qildilar.

Qadimgi milliy xalq o'yinlari, turli jismoniy mashqlar va musobakalar o'tkazib kelingan bellashuvlar, musobaqalar xalq o'rtasida saqlanib qoldi. Shuni ta'kidlash lozimki, asosiy tadbirlar, o'yin va musobaqalar asosan boy-feodallar, zodagonlar o'rtasida rasmiy ravishda o'tkazib kelingan.

O'rta Osiyoning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Termiz kabi yirik savdo va sanoat markazlarida diniy maktablar mavjud bo'lib, ularda faqat diniy ta'lim berilgan. Shug'ullanuvchilarni mullabachchalar deb yuritishgan.

Odatga ko'ra mullabachchalar odobli, tartibli va sipo bo'lib yurishlari shart edi. Shu sababdan ular yosh bola yoki o'smir bo'lsada, umumiy qoidalarga rioya qilib, o'yin mashqlar bilan shug'ullanishni ep ko'rishmagan. O'yinlar, turli mashqlar bilan ko'pincha kambag'allar, o'rta xol dehqonlarning bolalari, ko'cha va yaylovlarda shug'ullanishgan. Chunki ularning qiladigan yumushlari kam bo'lgan. Ular erkin holda faqat uy va qo'shnilarining tirikchiliklarida ishtirok etib, bekorchi vaqtlari ko'p bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Ruslarning Turkistonga kelib o'rnashib olganida jismoniy tarbiya va sportni rivojlanish bosqichlari.

XIX asrning ikkinchi yarmida Ruslarning Turkistonga kelib o'rnashib olishi natijasida bu yerlarda erlar va qizlar gimnaziyalari, maktablar tashkil qilinadi. Shu sababdan bu o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya berila boshladi.

Turkiston o'lkasida 1890-1900 yillarda maktablarda jismoniy tarbiya mashqlarini o'tkazish ancha jonlandi. Harbiy maktab va bilim yurtlarida gimnastika,

qilichbozlik, otish va turli o'yin mashg'ulotlari tashkil qilinib, u asta-sekin mahalliy millat yoshlarining faoliyatiga o'ta boshladi. Bu paytlarda maxsus o'quv yurtlari, harbiy xizmat joylarida gimnastika, launtennis va boshqa turlardan kichik musobaqalar o'tkaziladi.

Taniqli jamoat arbobi, Respublika sport qo'mitasining raisi, O'zbek Davlat jismoniy tarbiya institutining sobiq rektori R.I.Ismoilov va professor Yu.S. Sholomiskiylarning ma'lumotlariga qaraganda Turkiston o'lkasida 1910 yilda "Potesnie polki" deb ataluvchi qismlar tashkil qilingan. U yarim sport va yarim harbiy yo'nalishdagi tashkilot bo'lib, maqsad-yoshlar kuch-g'ayratini harbiylashtirishga yo'llash, ularni "Din-podshoh va vatan uchun" xizmat qildirishga qaratilgan.

1911 yilda Toshkentda "Okrug qilichbozlik-gimnastika maktabi" ochilgan va unda qilichbozlik, asboblarni ustida gimnastika mashg'ulotlari o'tkazilgan. Mutaxassis xodimlarning tanqisligini hisobga olib, 1912 yilda jismoniy tarbiya o'qituvchilari tayyorlanadigan birinchi gimnastika va harbiy-saf kursi ochilgan. Shunga qaramasdan o'quv yurtlari, ayniqsa aholi o'rtasida jismoniy tarbiyani rivojlantirishga kam e'tibor berilgan.

1914 yilda Turkiston o'lkasida 160 ta maktab, ularda 17 ming bola ta'lim olgan.

Ular asosan podsho amaldorlari va mahalliy feodallarning bolalari bo'lgan. Bu davrlarda Turkiston xalqi orasida savodlilar juda kam bo'lgan. Shuni eslatish zarurki, eski diniy maktablarda va shaxsiy uylarda ta'lim olgan kishilarni rus hukumdorlari savodlilar soniga qo'shishmagan. Shuning uchun ular o'z hokimiyatlariga axborot berganda rus maktablarini bitirganlarnigina ro'yxatga qo'shishgan. Bunga quyidagi dalillarni ko'rsatish kifoyadir.

1897 yilgi ma'lumotda tojiklar orasida 3 (o'zbeklar orasida 1.6), (qozoqlar orasida 1.0), (turkmanlar orasida 0.7) va qirg'izlar orasida 0.6 savdoli kishilar bo'lgan.

Oktyabr inqilobigacha Turkiston o'lkasidagi maktablarda jismoniy tarbiya muvaqqat bo'lib, hech qanday tizimga asos solinmagan. Chunki jismoniy tarbiya va sport bo'yicha ishlab chiqilgan maxsus dasturlar bo'lmagan.

1916 yil 1 oktyabrda "Sport safarbarligi" degan tashkilot ish boshlaydi. Bunga erlar gimnaziyasi, seminariyasi, real bilim yurti, kommersiya (tijorat) va hunar bilim yurtlarining talabalari bir oy muddatga safarbar etilar edi. Harbiy qo'shinlar uchun mo'ljallangan jismoniy tarbiya dasturi bu kursda qo'llanilgan. Buning asosiy maqsadi yoshlarni harbiy-jismoniy tayyorlash va ko'rikdan o'tkazish bo'lgan.

Bu davrlarda Toshkentda velosport, qilichbozlik, gimnastika yengil atletika bo'yicha o'tkazilgan saralash musobaqalarida faqat harbiylar, rus amaldorlarigina ishtirok etishgan. Ularning asosiy maqsadi Stokgolmda o'tkaziladigan (1912 y), xalqaro Olimpiya o'yinlarida qatnashish uchun rus komandalarini to'ldirish kerak edi.

"Toshkent havaskor velosipedchilar jamiyati" (1895), "Toshkent gimnastika va jismoniy mashq havaskorlari jamiyati" (1904), "Sokol" (Lochin, 1906) yengil atletika guruhi tashkil etilishi va ularda bir to'dagina kishilar shug'ullansa, Turkiston

o'lkasida Sport bilan shug'ullanishga asos soldi deb e'tirof etish mumkin.

1913 yilda tashkil etilgan "Toshkent sport havaskorlari jamiyati" haqida.

1913 yilda tashkil etilgan "Toshkent sport havaskorlari jamiyati" Turkiston o'lkasidagi eng yirik sport tashkiloti edi.

E'tiborli tomonlardan biri shuki, 1908 yildan boshlab Turkistonda professional polvonlar qatnashadigan chempionatlar o'tkaziladi. Bularda jahonga taniqli Zaykin, Poddubniy, Baxturov, Shevale, Bul kabi ko'pgina polvonlar qatnashgan.

1911 yilda o'tkazilgan bunday musobaqalarda mahalliy millat polvonlari ham ishtirok etkanlar. Ulardan Ahmad polvon, Avazxo'ja polvon, Xaydar Ali polvon, Abduraxmon polvon, Xaitov, A'loev kabilar Toshkent sirkida bellashuvda qatnashganlar.

Taniqli jurnalist, Respublika kurash federatsiyasining sobiq raisi, To'liq Obidovning (marhum) "O'zbek polvonlari" (T., 1979) kitobida kurashchilar haqida yaxshi dalillar keltirilgan. Ya'ni; 1895 yil mashhur nemis polvoni Rippel Toshkentga kelib, sirkda o'z kuchi, mahoratini ko'rsatib hamma tomoshabinlarni qoyil qoldirib yuradi. Uning og'irligi sakkiz yarim pud (133 kg) bo'lib, sakkiz pudlik cho'yanni bir qo'li bilan, 16 pudlik cho'yanni kifti bilan ko'tarib tamosha ko'rsatgan. O'sha paytlari Toshkentning Beshyog'och daha, Chaqir mahallasida o'tgan Ahmad polvonning dovrug'ini eshitib, u bilan kurashish istagini izhor etgan. Kim yiqilsa, "yonidan 50 so'm beradi", deb garovlashibdi. Shu yil 23 iyunda odamlar sirkda yig'ilishibdi. 28 yoshli Ahmad polvon egnida oq yaxtak, beliga belbog' bog'lab o'rta chiqadi. "Kim yiqilib, mayib bo'lsa, o'z gardoniga", deb shart qo'yildi. Rippel belida tasma belbog' bilan chiqadi.

Ikki polvon bel tutib, o'rtada aylanadi. Sirkda shunday sukunat hukm surardiki, pashsha uchsa ham bilinardi. Ahmad polvon "Yo pirim", degan nidosi eshitiladi. Shu lahzada yer larzaga kelgandek tuyuldi. Charxpalak bo'lib tushgan Rippel yerda uzala tushib yotardi.

1904 yilda quvalik Xo'ja polvon Toshkentga kelib, "Manman" degan polvonlarni bitta qo'ymay yiqitib kelgan. Bu paytlar Ahmad polvon belida yarasi bilan betobroq edi. Nomus kuchlilik qilib, Xo'janing shashtini qaytarmasdan kurashga tushadi. Ahmad polvon Xo'janing belbog'idan ushlab, bir silkitib ko'kragiga bosdida, muallaq ko'tarib, maydonni aylandi, so'ngra uni sekin yerga qo'yib: "Mehmonsiz, siyladim", degan. Ahmad polvonning oliyjanoblighi tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ladi. Ahmad polvon 1911 yil Fransuz qoidalari bo'yicha o'tkazilgan klassik kurashda Germaniya chempioni Giberni yutadi. Bunga o'xshagan polvonlar O'zbekistonning deyarlik barcha xududlarida juda ko'p bo'lgan. Bu haqdagi dalillarni yana "O'zbek kurashi" (Mustaqil O'zbekiston bo'limi) da bayon etildi. (qarang).

1906 yildan boshlab O'rta Osiyoda futbol rasmiy ravishda tarkib topa boshlaydi. 1911 yildan boshlab esa Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon va boshqa shaharlarda turli xil musobaqalarda, o'zaro futbol uchrashuvlari, o'tkaziladi.

1911-1915 yillarda harbiy okrug qoshidagi bosmaxona kishilari o'zlarining

gimnastika to'garakalarini tashkil qilishdi.

Turkiston general gubernatori mahalliy millat vakillarining sport jamiyatini tuzishga qat'iy qarshilik qiladi.

Shunga qaramasdan xalq o'zlarining milliy o'yinlarini tashkil qilishni davom ettirdi. Kurash, poyga, uloq, dorbozlik; akrobatika, harakatli o'yinlar keng tarqaldi. "Navro'z", "Hosil bayrami" va boshqa udumlarga bag'ishlangan xalq sayillari hamda katta to'ylarda polvonlarning bellashuvi, mohir chavandozlarning abjirligi, dorboz o'yinlari, arqon tortishish, tosh ko'tarish kabi o'yin va namoyishlari hammani xayratga solar va juda qiziqarli bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, bu davrlardagi jismoniy tarbiya va sport ishlari mutaxassis olimlar Botirov X.A., Akramov A.K. va boshqalarni o'quv qo'llanmalarida batafsil ifodalangan.

Xulosa qilganda, Markaziy Osiyo xududida yashagan ajdod va avlodlarimizdan meros bo'lib qolgan juda ko'p boy manba'lar mavjud. Ularni o'tmishdan asrab-avaylab, yanada boyitib bizgacha yetib kelishini ta'minlaganlar. Bunday tugamas boyliklar orasida jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya insonlarni bolalikdan sog'lom o'stirish, ularning jismoniy va ma'naviy kamolotini ravnaq toptirish, sog'lom turmush kechirish, mehnat qobiliyatini oshirish, uzoq umr ko'rishga ko'maklashuvchi muayyan faoliyatdir. Bunda ajdodlarimizning ov qurollarini yasash, tog', daryo, cho'llarda yovvoyi hayvonlarni tutish uchun kuch-quvvat, epchilik, merganlikni tarbiyalashni o'rganganlar. Bunda otda turib kamondan o'q otish, nayza sanchish, kurashish, piyoda yuguurish, to'siqlardan o'tish an'anaviy urf-odatlar, ommaviy sayllarda harakatli o'yinlarni tashkil qilish kabi murakkab mashqlarni bajarganlar. Turli janglarda bu vositalardan mohirona foydalanganlar.

Buyuk sarkardalar Amir Temur, Zaxriddin Muhammad Bobur va undan keyingi davrdagi hokimiyatni boshqaruvchilar o'z jangchilarini faqat jang qilish san'atinigina emas, balki ularni jangovorlik ruhida tarbiyalashning asosiy mazmuni jismonan kuchli, epchil, chaqqon, chidamli bo'lishga ham o'rgatganlar. Bunda yuqorida qayd etilgan jismoniy tarbiya vositalarini maqsad yo'lida ishlatganlar.

Xalq o'z udumlari va an'anaviy bayramlarida kurash, ot o'yinlari, qilichbozlik, dorboz, poyga va turli harakatli o'yinlardan foydalanganlar. Bu tadbirlar yoshlarni kuchli bo'lish, Vatanni sevish, kasbni egallash va uddaburonlikka chorlagan.

O'z-o'zini nazorat qilish va bilimlarni tekshirish uchun savollar.

Qadimgi ajdodlarimiz turmush sharoitida jismoniy tarbiya mavjud bo'lganmi?

Bosqinchilarga qarshi ommaviy kurashlarda qanday vositalardan foydalanilgan?

Urush, janglar, mehnatlar qanday o'yinlarda ifoda etilgan?